


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**ICHKI KASALLIKLAR FANIDAN
VAZIYATLI
MASALALAR TO'PLAMI**

Toshkent- 2022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

"Tasdiqlayman"



**Toshkent tibbiyot akademiyasi
ilmiy ishlari bo'yicha prorektori
prof. Sh.A.Boymuradov**

30 » *Sh.A.Boymuradov* 2022y.

**ICHKI KASALLIKLAR FANIDAN VAZIYATLI
MASALALAR TO'PLAMI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan
5510100- Davolash yonalishi ichki kasalliklar fani bo'yicha ta'lim olayotgan
talabalar uchun tavsiya etilgan.

Toshkent- 2022

QISQARTMALAR VA SHARTLI BELGILAR RO'YXATI

Qisqartmalar ro'yxati

- ABT — antibakterial terapiya.
- AOB - arterial qon bosimi
- BA — Bronxial astma
- BD-Bronx odliatorlar
- GKS – glyukokortikosteroidlar
- CAT – COPD Assessment Test
- GOLD – Global Initiative for Chronic Obstructive Lung Disease
- MRC – shkala Modified Medical Research Council Dyspnea Scale
- NOS – nafas olish soni.
- RS- Respirato'ri-sinistal infeksiya
- TNF -tashqi nafas funksiyasi
- SMV- sitomegalovirus
- YUS – Yurak urish soni
- MRT – magnito-rezonans tomografiya
- NP – nozokomial pnevmoniya
- EKG – elektrokardiogramma
- EXOKG – exokardiogramma

Tuzuvchilar: Nurillaeva N.M.

TTA 1 - son ichki kasalliklari kafedrasini mudiri, t.f.d.

Nuriddinova N.B. TTA 1-son ichki kasalliklari kafedrasini dotsenti t.f.n.
Zabaydulloyeva M.T. TTA 1-son ichki kasalliklari kafedrasini dotsenti t.f.n.
Shoalimova Z.M. TTA 1-son ichki kasalliklari kafedrasini dotsenti t.f.n.

Tag'irichlilar:

Musayeva Sh.Z.

Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, ichki kasalliklar 1 kafedrasini dotsenti

Miraxmedova X.T.

TTA 1-son ichki kasalliklar propedeutikasi kafedrasini dotsenti

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 5310100-Davolash, yonalishi ichki kasalliklar fani bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun tavsiya etilgan.

Vaziyatli masalalar to'plami TTA MUH yig'ilishida ko'rib chiqilgan va muhokama qilingan.

«02» _____ X/II _____ 2021y

Bayonnomasi № 3

Vaziyatli masalalar to'plami TTA Ilmiy Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.

«02» _____ X/II _____ 2021y

Bayonnomasi № 5

TTA Ilmiy kengashi



..... t.f.d., professor G.A. Ismailova

Ichki kasalliklar fani klinik tibbiyotning muxim bo'limi bo'lib, klinik xolatlarni yoritish uchun katta xajmdagi faktlarni bilish va eslab qolishni talab etadi. Shu sababli ushbu qo'llanmaning asosiy maqsadi talabalarga o'z bilimlarini baxolashda yordam beradi. Ichki kasalliklardan masalalar to'plami - 5510100- Davolash yo'nalishi ichki kasalliklar fani bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun dastur asosida tuzilgan. Ichki kasalliklarni o'rganishda samarali usullardan biri vaziyatli masalalarni echish. Masalalarni echish va to'g'ri tashxis qo'yish fanidan olingan nazariy va amaliy bilimlarni mustakkamlaydi. Ichki kasalliklar fani bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun o'zbek tilida yozilgan vaziyatli masalalar to'plamini kam. Shuuni xisobga olgan holda, ushbu vaziyatli masalalar to'plamini tuzilgan. Ushbu to'plam vaziyatli masalalarni mustaqil echishni o'rganmoqchi bo'lgan talabalar uchun ham foydalidir. Qo'llanmaning asosiy mohiyati shundan iboratki, o'quv uslubiy qo'llanmada masalalar ichki kasalliklarning turli yo'nalishlari bo'yicha keltirilgan.

YURAK QON TOMIR KASALLIKLARI

Vaziyatli masala №1.

Bemor 54 yosh, bosh og'rig'i, bosh aylanishi, ko'rsining buzilishi, uyquchanlik, kayfiyat o'zgarishi kabi shikoyatlar bildirdi.

Anamnezidan qon bosimini 48 yoshidan beri menopauzadan keyin 180/100 mm sim.ust gacha ko'zariadi. Shu bilan birga oxirgi oylarda tana vaznining oshishi kuzatildi. Doimiy gipertenziv dorilar qabul qilinmaydi. Depressiyaga moyilligini qayd etadi. Yashash turmush tarzini qoniqarli. Miokard infarkti va insult o'tkazmagan. Yurak qon tomir kasalliklariga nashiy moyillik mavjud: onasi 74 yoshida qon bosimini oshishi, qandli diabetdan, akasi 50 yoshida insultdan vafot etgan.

Ob'ektiv ko'rikda: umumiy ahvoli qoniqarli. TVI-38,6 kg/m². Bel aylanasi-111 sm. Teri va ko'rinadigan shilliq pardalari odadagi rang va namlikda. Periferik shishlar yo'q. Limfa tugunlari paypaslanmaydi. Qalqonsimon bez kattalashmagan. O'pkada vesikuliyar nafas, xirillashlar yo'q, NOS 16 ta I daqiqada.

Yurak tonlari bog'iq, ritmik, yurak urish tezligi - daqiqada 90 ta, to'shning o'ng tomonida II qovurg'a oralig'ida II ton aktsenti, AQB - 170/100 mm sim.ust. Qorin yumshoq, og'riqsiz. Jigar va taloq paqpaslanmaydi. Turtki sinamasi ikki tomonda manfiy.

Klinik qon analizi: gemoglobin 157 g/l; eritrotsitlar 5,0x10¹²/l; trombotsitlar 220x10⁹/l; leykotsitlar 6,8x10⁹/l; ECHT 15 mm/soat.

Qon biokimyoviy analizi: umumiy oqsil 78 g/l; mochevina 7,0 mmol/l; kreatinin 96 mmol/l; Ast 28 u/l; Alt 26 u/l; CFC 96 u/l; um.bilirubin 16 mmol/l; um. xolesterin 8,2 mmol/l; triglitseridlar 3,5 mmol/l; glyukoza 6,5 mmol/l; siydik kislotasi 620 mmol/l.

Glyukoza o'vqatdan 2 soatdan keyin: 10,5 mmol/l.

Savollar:

1. Asosiy sindromlarni ajratib ko'rsating.
2. Differensial tashxis o'tkazing.
3. Qo'shimcha tekshiruvlar buyuring.